

## NASRIY ASARLARDA USLUBIY O'ZGARISNLAR

*Avezova Gulnora Samandarovna*

*QQDU, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nozirgi o'zbek nasriga xos bo'lgan uslubiy o'zgarishlar, ularning adib asarlaridagi o'ziga xos evrilishlari haqida mulohaza yauritiladi. Fikrlar qahramonlar harakatlaridagi yondoshuvlar asosida dalillanadi.

**Kalit so'zlar.** *Personaj, muvozanat, tadrijiy, davr va ruh, ustivorlik.*

Hozirgi o'zbek adabiyotida U.Hamdami badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik asoslarini teran tadqiq qiluvchi adabiyotshunos- olimlarimizdan biri, shoir, tarjimon, nosir sifatida qalam tebratmoqda. U.Turonning "Turkiy xalqlar mafkurasi" (1995), J.Rumiyning "Ichingdagi ichingdadir" (1997-2001) singari asarlarini tarjima qilish jarayonida uning yaxlit dunyosi shuhasiz yanada yuksaldi. Mazkur asarlardan qalb tug'yonlariga hamohang ko'plab jihatlarni topgan adibga bugungi zamondoshimiz kayfiyatini ask ettirish, davrning qaynoq nafasi-o'ziga xos evrilishlarni qalamga olish ehtiyojini tug'dirgani shubhasiz. "Muvozanat" romani qahramonlari har birining ichida omonsiz jang, ayovsiz kurash kechadi. Ijtimoiy muhit suvratini akslantirgan ongi va ruhida ma'naviy-ruhiy muvozanatni asrash qiynoq- iztiroblari sodir bo'ladi. Muvozanatga ulkan ehtiyoj tuygan qahramonlar evrilishlar davrida jamiyat aro ham, o'z ko'ngillarida ham buyuk Tenglikka intilishadi. Zotan, botiniy va zohiriy muvozanatning buzilishi taqdirar fojeasini keltirib chiqargan ekan, demakki, fojeiy qahramonlarni anglash ham nihoyatda muhimdir. Yusuf yoki Amir xarakterida romanning yetakchi g'oyasi aks etgan. Odil aka, Said, Mirazim, Zahro, Manzura, Ergash, bosh cho'pon va boshqa qishloq odamlari taqdiri ham romanda salmoqli o'rin tutadi.

"Muvozanat" romanidagi markaziy obraz Yusuf- zamon kishisi. U diniy e'tiqodni azaliy qadryatlar ahamiyatini rad etmagan holda davr o'zgarishlarini teran his qilib yashaydi. O'z hayotini ilm-fan yo'liga tikkan, o'zligini yo'qotmagan shaxs. Yusuf millat va xalq qayg'usi haqida o'ylovchi, davr to'fonlarining beshafqat sinovlari girdobida o'rtangan qahramon. Uni akasi Amirdan farqlovchi jihat ham diniy-islomiy e'tiqodda haddidan oshmaslik- me'yorni bilishidir. Boshqacha aytganda, qahramon akasi kabi ko'r-ko'rona taasuf qiluvchi mutaasib emas. Demak, romanda inson moddiy-ma'naviy muvozanatga katta ehtiyoj sezadi. Modda va ruh tengligi ta'min etilsagina, maqsadni amalga oshirmoq mumkin bo'ladi, degan aqida asar mag'zini tashlik etadi. Yozuvchi mazkur fikrni turli saviya, dunyoqarash, tarbiya va mavqega ega insonlar vositasida mantiqan dalillaydi.

Asardagi Amir o'z botiniy olamining pastqam burchlarida qolib, o'zini nihoyatda yolg'iz va ojiz sezadi. Bu nuqtada muallif ikki nuqtani birlashtiradi: bir tomondan, bandaning tavba-istig'fori pir yo'l - yo'riqlar yordami bilan amalga oshadi, ya'ni ma'rifat bo'lmasa, sog'lom e'tiqod shakllanmaydi, ikkinchi tomondan, tom ma'nodagi Ollohga intilishga kuchli insoniy iroda kerak. Amir yuksak darajasiga muvofiq katta ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarga munosib ravishda tobora ko'proq bilmoqni ixtiyor etgan personaj dinda chuqur ketib yo'lini yo'qotib qo'yadi. Muallif tili bilan aytganda, "...tayanch va taskin, hamroh va hamdard topa olmay, o'z yolg'izligi izg'irida muz qotdi" (59-bet).



Ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy jihatdan yakkalanib qolgan najot izlab topa olmagan Amirning aqldan ozishi tabiiy mantiqqa xosedi.

Ko'r-ko'rona e'tiqod qurboni bo'lgan bu personaj fojiasi din ishlarida haddan oshish natijasida ahli oilasi, bola –chaqasi, ota-onaso hatto o'z badan va nafsining ham unda ba'zi haqlari bor ekanini unutgani- muvozanatni uzviy yo'qotgani bilan bog'lanadi. Dunyo ishlari, kundalik tashvishlardan butkul yuz o'girib, taqvo, toat-ibodatni ixtiyor aylagan Amir o'zgalarni ham shu yo'ldan yurishga da'vat etadi.

Qahramon o'z akasi Amir bilan ochiq bahs-munozaraga kirishar ekan, asosli manbalarga tayanib hukum-xulosalar chiqaradi. Ruhiiy sokinlikka intilib, dilidagi ishqni ro'yobga chiqarish yo'llari-yu usullarini topolmay tasavvuf sahrosida esankirab qolib, maqsadga yetolmagan Amir fojiasi; o'zini tolesiz sezib, xayolidagi hayotni reallika ko'chirishni tilagan, xiyonat iztiroblarida o'rtangan Zahro turmushini; ijtimoiy-ma'naviy jihatdan yolg'izlanib, ruhiy qiynoqlar ichida azoblanayotgan Said taqdirini; barcga havaslari ro'yobga chiqsa-da, ko'ngli huvillab qolgan Mirazim tanholigini anglab yetadi. bashariyatning yorug' kelajagini ilm- ma'rifatdagina ko'radigan, ma'naviy-ruhiy qutblarni uyg'inlashtirish zarurligini tushungan yetuk insonga aylanadi. Yusuf jamiyat a'zolarining psixikasini o'rganish, demakki, jamiyatlar taqdirini tarixan tahlil etish orqali shu xulosaga keladiki, har bir insonning botiniy olamida yovuzlik ustidan ezgulik g'alaba qozonmog'i shart, aks holda qiyomat yer yuzida avj oladi. Zamon dolg'alaridan o'zlikni qutqarib bashariyatning ulug' orzulari bilan hamnafas tarzda kurashadigan insonni shakllantirish yo'lidagi mulohazalari "Muvozanat" romanida Qur'oni Karim ko'rsatmalari, hadislar, ilmi qol va ilmi hol, Jaloliddin Rumi ijodi, shuningdek dunyoviy falsafaga tayangan holda ilgari suriladi.

Masalan, Amir nutqida insoniy sabr-bardosh haqidagi g'oyalar Muhammad (s.a.v) hayotidagi voqealardan misollar keltirish orqali ilgari suriladi: "Odamlar moddiy boylikka emas, ma'naviy hokisorlikka qarab intilsin. Payg'ambarimiz butun islom dunyosining rahbariga aylanga vaqtida ham juda faqir hayot kechirhanlar. Uylarida kunda bir marta qozon qaynagan yoki qaynamagan, yemishlari xurmo-yu suv bo'lgan. Biz-chi?! Astag'furillah, Astag'furillah" (14-15 betlar).

Olamning o'zgarganligini tushunmay, taqvo-yu miskinlikdan iborat zohidlar yo'lini butun xalqqa tavsiya etayotgan Amir ruhiy dunyosini ko'rsatishda bunday kiritmalar muhim ahamiyat kasb etadi, obraz ishonchligini ta'minlaydi. Amir va Yusufning e'tiqodiy qutblanishini ko'rsatishda muallif ularning islom farzlariga munosabatini belgilaydigan tipik dialoglar turkumini tavsiya etadiki, natija o'laroq musohabalar qahramon tiyatini ochib berish barobarida ongli-sog'lom e'tiqodiy butunlikni ham oydinlashtiradi. Tabiiyki, nutqlarda turli kiritmalar ijodkor xos mushohadalarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu bahslardan ayon bo'ladiki, Yusuf ham shariat ahkomlarini yaxshi biladi. Yuksak insoniylik Oliy Nizomining hamma joyda qaror topishiga imkon qadar o'z ulushini qo'shishga intiladi. Binobarin, Yusufni o'sha nizomni buzuvchi ham, unga loqyd ham deyish mumkin emas.

U.Normatov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Yusufda ham muayyan e'tiqod mavjud, u diniy qadriyatlar ahamiyatini aslo rad etmaydi, ammo u, avvalo, dunyoviy fan, zamon kishisi; ha'etini millatning haqiqiy tarixini yaratish yo'liga tikkan, zamoni, davr o'zgarishlarini teran his etadigan tarixiy jaraen, yurt istiqboli haqida mustaqil qarashlarga ega yetuk bir shaxs. Bozor iqtisodi munosabatlariga o'tish davri to'fonlari bu yigit boshqargan ha'et kemasini shafqatsiz sinovlarga duchor etadi. Mana shu to'fonlar girdobida u boshqargan kema sohilning goh u, goh bu tomoniga borib keladi. Bu yigit ko'pdan-ko'p mushkul savdolarni boshidan kechiradi, moddiy muhtojlik jabrini tatiydi, oilasi, farzandidan ajraladi, muayyan muddat sevgan kasbidan ketadi, ta'bi suymagan yumushlarni ado etishga majbur bo'ladi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б.284.



Darhaqiqat, Yusuf muallifning asosiy g'oyaviy-estetik niyatini yaxlitlashtiradigan universal obraz. Adib boshqa qahramonlarga ham shu obraz vositasida o'tadi. To'g'rirog'i, Yusuf butun asar g'oyaviy, ma'naviy va shakliy komponentlararo ko'prik vazifasini o'taydi, hodisotni mantiqan bir-biriga ulaydi. Muallif onga turfa miqyoslardan ta'sir o'tkazib turadigan reaksiya shiddati g'oyaning ichki intizomida yaxlitlashuviga e'tibor qaratadi. Asarda hayot oqimi hamda e'tiqod qudrati o'zaro to'qnashadi.

Adib Amir qiyofasida badiiy tafakkur kengligi qahramon ruhiy tanazzuli va ijtimoiy tadrijini birlashtiradi. O'z navbatida, badiiy mantiq mohiyati shakl tutumini ijod falsafasiga yo'naltiradi. Mazkur jarayonda kitobxon zamon ruhiyati inson tasavvuri va dunyoqarashiga nisbatan daxlsiz rivojlanishiga iqror bo'ladi. Amir haëtda muvozanatga boshlovchi yagona, to'g'ri yo'l sifatida Muhammad payg'ambar zamonidagi islom dini qonun-qoidalariga, urf-odatlariga, ahkomlariga sira og'ishmasdan, to'lig'icha amal qilib yashashni tanlagan. Amir bu yo'ldan adashishni butun insoniyat uchun fojea deb hisoblaydi va undan sal bo'lsa-da, chetga chiqish hollarini ko'rganda, o'zini ham, hatto otasini ham ayamaydi. Amir xarakterining mana shu asosiy yo'nalishi uning barcha dunëviy ishlardan uzoqlashuviga, maktabdagi o'qituvchilikni tashlab, toat-ibodatga berilishida, chillaga o'tirishida, bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lgan otasini urishida va boshqa nihoyatda ërqin haëtiy lavhalarda aks ettirilgan. "Haëtda Amir tanlagan bu yo'l muvozanatga emas, balki hech shubhasiz, fojeaga olib borishi g'oyasi yanada hayajonliroq manzaralarda aks ettirilgandek ko'rinadi"<sup>1</sup>, – deb ëzadi professor Sanjar Sodiq.

Amir romandagi maromiga yetgan xarakterlardan biridir. Muallif qahramonning haëtiy iroda yo'nalishini to'laqonli ochib bergan. Real tafsilotlar (qahramonning jinnixonaga tushishi, xotinidan judo bo'lish iztiroblari, fikriy parokandaligi, nohaq tuhmat) qahramon xarakterining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Yozuvchi katta g'oyaviy-estetik niyatini – moddiy-ma'naviy muvozanatni qahramonlararo mantiq bilan dalillaydiki, unda Amir badiiy sajiyasi muhim o'rin egallaydi. Ulug'bek Hamdam mazkur obraz orqali ikki chiziqni tavsiflaydi: bir tomondan, buyuk tenglikda me'ër muhim o'rin tutishini ta'kidlasa, ikkinchi tomondan, ongli e'tiqod va sog'lom maslak inson istiqboli kafolati ekanligini tasdiqlaydi. Eng asosiysi, Amir Yusufdan farqli o'laroq barqaror xarakter, biroq u Islom ma'rifati erkinlik asosiga tayanadigan tariqat ekanligi, inson ruhiy madaniyatining bir bosqichi sifatida zuhur topishini anglamaydi. Qahramon fojeasini aynan shu nuqtadan boshlamoq hamda ma'rifatsizlik botqog'idan izlamoq joiz. Ko'r-ko'rona e'tiqod odamzod ruhiyatini tom ma'noda zaharlaydi.

Shu nuqtai nazardan, romaniy tafakkur milliy-umuminsoniy qadriyatlar mezonini belgilash barobarida dunyoni badiiy idrok etish darajasini ham aniqlashtiradi. Yuqorida kuzatilgan belgi-xususiyatlar istiqbol davri romanchiligi XX asr o'zbek romanchiligi poetikasi tarixida o'ziga xos o'rin tutishini ko'rsatadi. Darhaqiqat, shakliy komponentlararo badiiy uyg'unlikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'zbek romanchiligida eksperiment deb baholanishga munosib qator ijodiy tajribalar o'tkazildi va ular ilmiy-adabiy jamoatchilikning haqli e'tirofiga sazovor bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. 272 b.
2. Содик С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.148.
3. Ёқубов И. Мувозанат эҳиёжи ва изтироби // Ҳамдам У. Мувозанат. – Тошкент. Шарқ, 2007. – Б.266.
4. Шахс ҳақида баҳс (У.Норматов ва Ж.Эшонкул суҳбати) // Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б.258.
5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.284.

<sup>1</sup> Содик С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.148.

